

DEVELOPING CREATIVE THINKING IN FUTURE TEACHERS

Bukhara State University

Jumayeva Mehribo Aduvohidovna

Abstract. The article discusses effective ways of developing the creative abilities of future pedagogues in the modern educational process. It highlights the importance of creativity in professional pedagogical activity and analyzes innovative approaches, interactive teaching methods, and pedagogical technologies used in the development of students' creative thinking skills. The study also emphasizes the role of independent learning, problem-based education, and collaborative activities in enhancing creativity. In addition, the article considers the pedagogical conditions necessary for forming creative competence and increasing the intellectual and innovative potential of future teachers.

Keywords: creativity, future pedagogues, creative ability, innovative technologies, interactive methods, pedagogical competence, creative thinking, educational process, independent learning, professional development, pedagogical innovation.

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari yoritilgan. Unda kreativlikning kasbiy pedagogik faoliyatdagi ahamiyati ochib berilib, talabalarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda qo'llaniladigan innovatsion yondashuvlar, interaktiv o'qitish metodlari hamda pedagogik texnologiyalar tahlil qilingan. Tadqiqotda mustaqil ta'lim, muammoli ta'lim va hamkorlikdagi faoliyatning kreativlikni rivojlantirishdagi o'rni alohida ta'kidlangan. Shuningdek, maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini shakllantirish va ularning intellektual hamda innovatsion salohiyatini oshirish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kreativlik, bo‘lajak pedagoglar, kreativ qobiliyat, innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar, pedagogik kompetentlik, ijodiy fikrlash, ta’lim jarayoni, mustaqil ta’lim, kasbiy rivojlanish, pedagogik innovatsiya.

Zamonaviy globallashtirish va innovatsion taraqqiyot sharoitida yosh avlodni yangilanib borayotgan jamiyat hayotiga moslashtirish, ularning mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va ijodiy yondashuv asosida faoliyat yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish oliy ta’lim tizimining eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari oldida nafaqat bilimli mutaxassisni tayyorlash, balki zamonaviy dunyo talablari asosida fikrlaydigan, innovatsion g‘oyalarni ilgari sura oladigan hamda ijtimoiy va kasbiy muammolarga kreativ yondasha oladigan shaxsni shakllantirish vazifasi ham turibdi. Shu nuqtai nazardan pedagogning kasbiy faoliyatida kreativlik muhim pedagogik kompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi.

Kreativlik ta’lim jarayonini tashkil etishning muhim omillaridan biri bo‘lib, u pedagogning o‘quv jarayonini noan’anaviy, innovatsion va samarali shakllarda tashkil eta olish qobiliyatini ifodalaydi. Kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarga yechim topishi, yangicha g‘oyalarni ilgari surishi va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishiga xizmat qiladi. Shu bois kreativlik faqatgina ijodkorlik emas, balki mavjud bilim va intellektual salohiyatni maqsadga yo‘naltirilgan holda samarali qo‘llay olish qobiliyati sifatida ham talqin etiladi.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, “kreativlik” atamasi XX asrning 60-yillarida Angliya-Amerika psixologiyasida keng qo‘llanila boshlagan bo‘lib, u shaxsning yangi g‘oyalar yaratishi, noodatiy fikrlashi va yangi ko‘nikmalarni shakllantira olish qobiliyatini anglatadi. Mashhur psixolog J. Gilford kreativlikning asosiy tarkibiy qismlarini tavsiflar ekan, quyidagi individual qobiliyatlarni alohida ta’kidlaydi: fikrni

maqsadga muvofiq yo'naltira olish, originallik, qiziquvchanlik, farazlar yaratish qobiliyati hamda fantaziya. Mazkur sifatlar shaxsning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyalarida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini kengaytirish hamda yosh avlodning ijodiy va intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur ustuvor vazifalar ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va kreativ yondashuvlardan samarali foydalanishni talab etadi. Interfaol o'qitish metodlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning faolligini oshirish, ularni erkin fikrlashga undash, jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda muammolarni ijodiy hal etish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday metodlar orqali talabalar ta'lim jarayonining passiv tinglovchisidan faol ishtirokchisiga aylanadi. Natijada ularda mustaqil qaror qabul qilish, o'z fikrini asoslab bera olish, yangilik yaratishga intilish kabi kreativ qobiliyatlar rivojlanadi. Ta'lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish jarayoni o'qituvchidan ta'lim mazmunini to'g'ri tanlash, innovatsion metodlardan foydalanish hamda individual yondashuvni tashkil etishni talab qiladi. Bunda talabalarning bilim saviyasi, qiziqishi, o'zlashtirish darajasi, ehtiyojlari va didaktik imkoniyatlari inobatga olinishi muhim ahamiyatga ega. Kreativ faoliyatni samarali shakllantirish uchun ta'lim jarayonida qulay pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur. Xususan, talabalarda kreativ faoliyatga nisbatan qiziqish va moyillikni shakllantirish, bilishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirish, mustaqil fikrlash va erkin qaror qabul qilish muhitini yaratish muhim pedagogik omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, o'quv jarayonida talabalarning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash, muammoli vaziyatlar

yaratish, innovatsion topshiriqlarni qo‘llash hamda ijodiy loyihalar bilan ishlash kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Demak, zamonaviy ta’lim tizimida kreativlikni rivojlantirish nafaqat pedagogik zarurat, balki jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Kreativ fikrlaydigan, innovatsion yondasha oladigan va mustaqil qaror qabul qiladigan yoshlarni tarbiyalash orqali jamiyatning intellektual salohiyati yuksaladi hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash imkoniyati kengayadi. ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir ta’lim oluvchida uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqida qarorni ishonch toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish; o‘quv jarayonini ta’lim oluvchi shaxsning xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish; ta’lim oluvchilarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash; kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirzayeva, Z. S., & Fayziev, V. B. (2021). O ‘QUVCHILARDA MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISH YO‘LLARI. Academic research in educational sciences, 2(5), 362-366.
2. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika” “Tafakkur chashmalari” T.2013y.
3. Kayumova N.M. “ Maktabgacha pedagogika” “TDPU” nashriyoti T.:2013 y.
4. JUMAYEVA, Mehribon. "Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda zamonaviy yondashuvlar." *edagogik ahorat* : 62.



5. Олимов Ш.Ш., Ходжиева М.Ш. Возможности применения педагогических технологий в образовательном процессе //Молодежь и XXI век-2020. – 2020. – С. 228-231.
6. Karimova R. M. Aksiologik yondashuvning ta'limdagi ahamiyati.// Pedagogika va psixologiya jurnali. 2022. 2(4), 45-51.
7. Kluckhohn C. Values and value-orientations in the theory of action: An exploration in definition and classification //Toward a general theory of action. – Harvard university press, 1951. – С. 388-433.
8. Ходжайев В. Х. Pedagogik aksiologiya” o’quv qo’llanma //Т.“Fan va texnologiya. – 2011. – Т. 156.
9. Ходжиева М. Ш. Совершенствование аксиологического подхода к педагогической деятельности у будущих учителей //Научный журнал. – 2020. – №. 9 (54). – С. 43-45.
10. Yoshiyena U. M. The importance of using pedagogical technologies in special educational schools //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2 (100). – С. 24-26.

